PAHLAVON MAHMUD RUBOIYLARIDA TASAVVUFIY G‘OYALAR

Pardayeva Yulduz Ibragimovna, Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabining oliy toifali ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi
e-mail: yulduzxonislombek@gmail.com
Ubaydullayeva Rayxon Abdujalil qizi, Guliston davlat pedagogika instituti O‘zbek tili va tillarni o‘qitish kafedrasi o‘qituvchisi
e-mail: rayhon121274@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada islom olamida VIII asr o‘rtalarida paydo bo‘lgan tasavvufning ta’limot sifatida rivojlanishi va musulmon olamida orif va oshiq so‘fiylar, darveshlar, qalandarlarning she‘riyatdagi izlanishlari, shular qatorida xorazmlik mashhur shoir, “Qitoliy” va “Puryoyi vali” taxalluslari bilan ijod qilgan mutasavvuf Pahlavon Mahmudning tasavvufiy qarashlariga to‘xtalib o‘tilgan. Shoirning ruboiylaridagi javonmardlik, futuvvatchilik tariqatiga xos g‘oyalarining tahlili o‘z o‘rnini topgan.

Kalit so‘zlar: tasavvuf, suf, zohid, javonmardlik, futuvvatchilik, mayi nob, Puryoyi vali.

СУФИЙСКИЕ ИДЕИ В РУБАИ ПАХЛАВАНА МАХМУДА

Аннотация. В данной статье рассматривается развитие суфизма как учения, зародившегося в исламском мире в середине VIII века, и исследования в поэзии суфиев, дервишей, каландаров в мусульманском мире, в том числе известного хорезмийского поэта-мистика Пахлавана Махмуда, писавшего под псевдонимами “Китоли” и “Пурьёйи Вали”. В рубаях поэта нашло свое место анализ его идей, характерных для тарикатов жавонмардлик и футуватчилик.

Ключевые слова: мистицизм, суф, аскетизм, джаванмардлик, футуватчилик, майи ноб, Пуриойи Вали.

SUFI IDEAS IN THE RUBAIY OF PAHLAVAN MAHMUD

Abstract. This article examines the development of Sufism as a teaching that originated in the Islamic world in the middle of the 8th century, and studies in the poetry of Sufis, dervishes, Qalandars in the Muslim world, including the famous Khorezm mystic poet Pahlavan Mahmud, who wrote under the pseudonyms “Kitoli” and “Puryei Wali”. The analysis of his ideas characteristic of the tariqas of javonmardlik and futuvatchilik found its place in the poet's shirts.

Keywords: mysticism, Suf, asceticism, javanmardlik, futuvatchilik, mayi nob, Puriyoi Vali.

Kirish. Islom olamida VIII asr o‘rtalarida paydo bo‘lgan tasavvuf dastlab zohidlik ko‘rinishida namoyon bo‘lgan. Tarixdan ma’lumki, payg‘ambarimiz Muhammad Mustafo s.a.v vafotlaridan so‘ng musulmonlar jamoasi ichida bo‘linish yuz berdi. Ayniqsa, Xalifa Usmon davrida kishilar boylikka ruju qo‘yib, hashamga berilib ketdilar. Bu hol islom ulamolari va dinni himoya qiluvchi e’tiqodli kishilarning noroziligiga sabab bo‘ldi. Ular xalq orasida qanoat va zuhdni asosiy maqsad qilib tarkidunyochilik g‘oyalarini targ‘ib qila boshladilar. Ular ijtimoiy faoliyatdan umuman chetlashib, surunkali toat-ibodatga berilishdi. Zohidlar uzlatga chekinib taqvoni qattiq ushlagan bo‘lishlariga qaramay, ular ishq va urfon (ilohiy ma’rifatdan) bexabar edilar. Zohidlarning niyati ibodat bilan oxiratda ma’rifat qozonishdir. Ular Qur’oni Karimda va’da qilingan jannat umidida toat-ibodat qilardilar. So‘fiylar ta’limotiga ko‘ra esa na bu dunyodan va na oxiratdan ta’ma bo‘lmasligi kerak. Ularning yagona istagi bu – Allohning diydori, xolos.

XIII-XIV asrlarda yashab ijod qilgan Nosiriddun Rabg‘uziy o‘zining “Qissasi Rabg‘uziy” asarida so‘fiylar haqida shunday ma’lumotlar keltiradi: “Aymishlar, dunyoda qolg‘anlar kofirlar erdilar, ujmoqda qolg‘anlar mo‘minlarning omilari erdilar. Ujmoqni (jannat) unamasdin hazratg‘a kelganlari xos qullari erdi. Yorlig‘ keldi: “Dunyoga ko‘ngil bermadingiz, ujmoqni unamadingiz, emdi ne tilayursiz?” Aydilar: “Ilohiy, bizga dunyo kerakmas, uqbo (oxirat) kerakmas. Bizga sen keraksen. “Yorlig‘ keldi: “Kim meni tiladi ersa ul baloni anga berurman” [1, 23-b].

Rabg‘uziyning fikricha, xos kishilarga, ya’ni Allohga oshiq bo‘lganlarga – payg‘ambarlarga baloni eng qattig‘i keladi, undan so‘ng avliyolalarga va undan so‘ng navbat bilan boshqalarga. Demak, Alloh ishqi bilan yonib, butun bir falsafiy tizimni shakllantirgan so‘fiylar ilohiy kashf-u karomat, ruhiy-psixologik holatlar bilan birgalikda adabiyot ilmini, ayniqsa, tasavvuf she’riyatining rivojlanishiga ham hissa qo‘shganlar. So‘fiy shoirlar tasavvuf ilmining doirasini kengaytirib, adabiyotimizni so‘fiy falsafasi va hikmatlar bilan boyitdilar. “Tasavvuf bir mafkuraviy oqim sifatida boshidanoq she’riayat bilan ajralmas bo‘lib, birikib yashadi”, – deb yozadi Radiy Fish o‘zining “Jaloliddin Rumiy” asarida [2, 75-b].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bora-bora tasavvuf ta’limot sifatida kuchaydi va musulmon olamida orif va oshiq so‘fiylar, darveshlar, qalandarlar soni ko‘payib bordi. Abdurahmon Jomiyning “Nafohat-ul uns minal hazarot-ul quds”[3, 9-b] nomli kitobida 664 та shayx so‘fiylarning ismi keltirilgan bo‘lsa, shu asarning ijodiy tarjimasi bo‘lgan Alisher Navoiyning “Nasoyim-ul muhabbat” asarida 770 ta shayxlarning tarjimayi holi keltiriladi, shulardan 35 tasini orifa ayollar tashkil qiladi [4, 88-b].

Tabiiyki, islom dinidagi mazhablar, qarashlar xilma-xilligi so‘fiylarning dunyoqarashiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatganini ko‘rishimiz mumkin. Tasavvuf tarixida yassaviya, kubraviya, naqshbandiya, mavlaviya, tayfuriya, hululiya, firdavsiya kabi maslaklar va yo‘nalishlarining vujudga kelishi tasavvufiy olimlarning turli qarashlarga ega bo‘lgan, turli xil tabiatli kishilar ekanligidan dalolat beradi. Ammo ularning umumiy maslagi bir – ya’ni ular o‘zlarini Allohga oshiqlar hisoblab, Yor vasliga erishish uchun o‘zligidan va foniy dunyodan kechgan, nafslarini jilovlab, komil insoniylikka erishish uchun umrini bag‘ishlagan zotlardir.

Shunday zotlardan biri bo‘lgan xorazmlik Najmiddin Kubrodan boshlangan

javonmardlik tariqatining davomchisi, mashhur faylasuf olim, insonparvar shoir Pahlavon Mahmudni aytish mumkin. Xiva yaqinida po‘stindo‘z oilasida tug‘ilgan shoir kuragi yerga tegmagan bahodir sifatida shuhrat qozongan. “Qitoliy” va “Puryoyi vali” taxalluslarini qo‘llab she’rlar yozgan Pahlavon shoir, asosan, fors-tojik tilida ijod qilgan. Pahlavon Mahmud Movarounnahr shaharlarida X asrdan boshlab tarqalgan yangi ma‘naviy-amaliy harakat – javonmardlik “futuvvatchilik” harakatining ma‘naviy rahnamosi bo‘lgan. Javonmardlik, asosan, oddiy xalq ichidan chiqqan pahlavonlar, qiziqchilar, hunarmandlar, sipohlar va boshqalardan tashkil topgan bo‘lib, ularning har birining jamoasi, piri, ustozi bo‘lgan. Barcha javonmardlar bir-biriga aka-uka, birodar sanalgan. Beg‘araz yaxshilik qilish, borini o‘zgalar bilan baham ko‘rish, muhtojlarga yordam berish ,pir-u ustozlar nomusini pok tutish, ma’naviy va jismoniy yetuklikka intilish, mard va oliyjanob bo‘lish javonmardlik harakatining asosiy g‘oyalaridan edi. Bu javonmardlik harakati o‘rta asrlardagi Yevropada tashkil topgan “Ritsarlik” o‘rdeniga yoki Kichik Osiyoda faoliyat yuritgan saxiy axiylar hunarmandlar jamoasiga o‘xshab ketadi.

Shoir haqida Shamsiddin Somiyning “Qomus ul-a’lom”, Lutf Alibek Ozarning “Otashkadayi Ozariy”, Kamoliddin Husayn Fanoiyning “Majolis ul-ushshoq”, shuningdek, “Manoqiba” asarlarida ma’lumotlar keltirilgan. Eron olimi Said Nafisiy “Futuvvat –javonmardlik guruhining peshvolaridan biri mashhur shoir Pahlavon Mahmud Xorazmiydir”, - deydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Malumki, falsafiy fikrlarni ifoda etishda ruboyi eng qulay janr hisoblanadi. Pahlavon Mahmudning ruboiylari badiiy tasvirga boy, xalqona sodda va yengil uslubda, ifoda tarzi ham aniq va lo‘nda, shu bilan birga o‘ynoqi va shiddatli tuyg‘ular bilan vobastadir. Adabiyotshinos N. Komilov: “Pahlavon Mahmudning ruboiylarini 4 guruhga bo‘lish mumkin. Birinchisi – zamona ahlidan nolish, ijtimoiy tengsizlikni ifodalovchi lirika, ikkinchisi – tariqat suluki haqida yozilgan ruboiylar, uchinchisi – vahdati vujud falsafasi asoslarini tushuntiruvchi ruboiylar”,-deb yozgan edi [5, 146-b]. Darhaqiqat, shoir ruboiylari ikki ulug‘ manba – Qur’oni Karim va Hadisi Sharifdan ta’sirlanib, ulardan ilhom olib yozilganligi shundaygina ko‘zga tashlanadi. Ayniqsa, bu vahdati vujud falsafasini tushuntiruvchi va ilohiy ishq haqida yozilgan ruboiylarda bu yaqqol sezilib turadi. Biroq shoir faqat ilohiy mavzulardagina emas, balki zaminiy dardni ham qalamga olgan, chunki u zamonasining qiyinchiliklari va yurt boshiga tushgan son-sanoqsiz balolar, to‘fonlarning shohidi bo‘lgan. Chingizxonning qonli yurishidan keyingi Xorazm tarixining eng og‘ir damlari baxtsizliklarni bir ruboiyga sig‘dirib, o‘z davrining realistik lavhasini chizib bergan:

Davronda ko‘p ko‘zni men giryon ko‘rdim,
Neki balo bo‘lsa beomon ko‘rdim.
Nuh ming yil yashadi, ko‘rdi bir to‘fon,
Men Nuh bo‘lmasam ham ming to‘fon ko‘rdim.

Yana bir ruboiysida shoir zamonasining dunyoparast, boylikka ruju qo‘ygan, oltin va kumushga sig‘inuvchi kimsalarini qattiq tanqid ostiga oladi. O‘zi javonmardlik tariqatining vakili sifatida sahiylikni targ‘ib qilayotgan paytda baxillik qilib, mol-u dunyo yig‘ayotgan “xoja”larga nafrat bilan qaraydi:

Ey xoja, sen nechun buncha bexabar,

Xayolingda kecha-kunduz kumush, zar.
Dastmoyang-ku bu olamda bir kafan
Buyurganmi senga kafan, kim aytar?

Shoir ruboiylarida javonmardlik tariqatining asosiy g‘oyalari – insonparvarlik, ochiq yuzli va ochiq qo‘lli bo‘lish, o‘zgalarning moliga ko‘z olaytirmaslik, ozgalarning sirini ochmaslik, halol mehnat qilish kabi fazilatlarni ulug‘lagan. Shoir o‘zini mevali daraxtga qiyoslab har qanday o‘tkinchi unga tosh otganida ham u or qilmasligi, hammaga yaxshi munosabatda bo‘lishini, ya’ni insonparvarlik g‘oyalarini ilgari suradi:

Konglim oppoq, na kek na kiynam bor,
Dushmanim ko‘p, va lekin men hammaga yor.
Mevali daraxtman, har bir o‘tkinchi
Tosh o‘tsa ham menga bo‘lmas or.

Shu o‘rinda nafsini yengib, ko‘ngil shaffofligiga erishgan lirik qahramon o‘zini mevali daraxtga o‘xshatishi shoirning xalq og‘zaki ijodidan xabardorligi, xususan, maqollar bilmdoni ekanligini isbotlaydi.

Tahlil va natijalar. Pahlavon Mahmudning ruboiylarida tasavvuf ta’limotining nazariy g‘oyalari bilan javonmardlik tariqatining amaliy qoidalari o‘zaro omuxta holda bayon qilingan. Unga ko‘ra koinotdagi barcha mavjudodlarda Xudoning diydori aks etadi.

Gul yuzida bulut niqobdir hanuz,
Ko‘ngullarda mayli sharobdur hanuz,
Uxlamagin, g‘aflat vaqtimi hozir?
May ich, jono, zero oftobdur hanuz.

Ruboiyda tasavvuf she’riyatida eng ko‘p qo‘llanadigan “may”, “sharob” istilohlari kelmoqda. Bu istilohlar tasavvuf ta’limotida Allohga bo‘lgan ishqni anglatadi. Shoir ko‘ngli Alloh ishqida yonayotgani, shu sababli tunni bedor o‘tkazib g‘aflatda qolmaslikni uqdirmoqda.

Hayit kelsa savob ish bo‘lgusidir,
Sahar soqiy mayi nob tutqusidir.
Namozingni qo‘yib ro‘zangni tark et,
Bugun gunohni savob bitgusidir.

“Mayi nob” – tiniq may iborasi ham “soqiy” istilohi bilan bu ruboiyda qo‘llangan. Sahar chog‘i ustoz, pir, murshidning Alloh ishqini ko‘ngillarga quyishi, musulmonlarga muqaddas hisoblangan Hayit bayrami kelsa, insonlarning poklanishini aks ettirgan. Pahlavon Mahmud ruboiylarida moddiy borliqning manguligi, inson va tabiat, Yor vasli va uning lazzati haqida fikr yuritiladi

Ko‘zgumga berardim kechqurun sayqal,
Boqdim unga tinniq bo‘lgan bir mahal,
Shuncha ko‘p ko‘rindi o‘z aybimki, men
O‘zgalar aybini unutdim tugal.

Ko‘ngil tiniqligi uchun kechqurun ko‘zguga “sayqal” berayotgan mahal, ya’ni tungi ibodatlar chog‘i lirik qahramon o‘z qalbiga nazar solib, gunohlarining ko‘pligidan o‘zgalar gunohini unutgani tasvirlangan. Bu ruboiyda Hadisi sharifning ta’siri yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Odamning tuproqdan yaralgani va yana qayta tuproqqa kirishi, yerdan unib chiqqan gul yoki sunbul Alloh vasliga talpinayotgan inson qalbi ekanligi haqida quyidagi ruboiyda mohirona aks etilgan:

Yerga aralashib yotar necha dil,
Jahon zarralari – lab, tish yoki til,
Yerdan unib chiqqan sunbul, yo gulni
Go‘zallarning sochi, yo yuzi degil.

Hayotning ba’zan shodlikka, ba’zan qayg‘uga to‘laligi, inson gohi to‘kinlikda goho qiyinchilik azobiga g‘arq bo‘lishi haqida quyidagi ruboiyda kuzatamiz. Oqil kishi uchun yor firog‘ida, ya’ni Alloh ishqida zor bo‘lmoqlik eng og‘ir dam ekanligi uqtiriladi:

Hayot mayi bo‘lur tiniq, quyqa ham,
Kiyim ham gohi bo‘z gohi beqasam.
Bular og‘ir emas oqil oldida,
Zor o‘lmoqlik bo‘lur juda og‘ir dam.

Shoirning pand-nasihat mavzusida yozilgan ruboiylari ham anchagina qismni tashkil qiladi. Unda futuvvat qoidalari o‘z aksini topgan. Shoir insonlarni mard, sahovatli bo‘lishga, qo‘rqoq bo‘lmaslikka, nodon kishilar bilan suhbat qurmaslikka chaqiradi.

Qoratosh sira ham bo‘lmas lojuvard,
Toza qalbga yuqmas aslo change gard.
Quloq solgin Puryoyivaliy so‘ziga,
Qo‘rqoqlardan biron chiqqanmidi mard!
Uch yuz yil ko‘hi qofni kelida tuymoq,
Dil qonidan bermoq falakka bo‘yoq,
Yoinki bir asr zindonda yotmoq,
Nodon suhbatidan ko‘ra yahshiroq.

Shoir ruboiylarini topib xalqqa yetkazishda taniqli olim va tarjimon To‘xtasin Jalolovning xizmatlari katta, shuningdek, Pahlavon Mahmudning ruboiylarini o‘zbek kitobxoniga tanishtirishda Vasfiy, Muinzoda va Ulfat Bokir kabi tarjimonlarning hissasini aytib o‘tish joiz.

Pahlavon Mahmudga nisbat berilgan “Hazrati Pahlavon” ruboiylarining qo‘lyozma nusxalari O‘zbekiston FA Sharqshunoslik institutida saqlanadi. [6,26-б.]

Xulosa va takliflar. Pahlavon Mahmudning ruboiylarini o‘rganib shuni xulosa qilish mumkinki, shoir ruboiylarida tasavvufiy g‘oyolar boshqa mutasavvuflarning fikrlaridan farq qiladi. Shoir ruboiylarida saxovatpeshalik, bag‘rikenglik va oliyjanoblik keng tarannum qilinadi.Unda odamlarga mehribonlik, tanigan va tanimagan kishilarga yordam berish va buni barchadan sir tutish Yor ishqi motivlari bilan uyg‘unlikda kuylanadi.Chin oshiqgina Yor vasliga erisha oladi, buning uchun inson Yor bilan birgalikda u yaratgan barcha narsa va mahluqlarni ham sevishi kerakligi uqtiriladi. Muhabbatga hamohang bunday g‘oyalar hozirgi yoshlarni tarbiyalashda qo‘l kelishi mumkin. Zero,umuminsoniy g‘oyalar barcha davrlarda har qanday jamiyatda ulug‘langan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Рабғузий Носириддин Бурхониддин. Қисаси Рабғузий. – Тошкент: Ёзувчи, 1990. 233-б.

2. Фиш Радий. Жалолиддин Румий: Тарихий – биографик роман. Русчадан Ж. Камол таржимаси. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986. 272-б.

3. Жомий Нуриддин Абдураҳмон. Нафахот ул-унс мин ҳазарот қудс. – Теҳрон. 1370 (ҳижрий). 11-б (форс тилида).

4. Navoiy A. To‘la asarlar to‘plami.10-jild –Toshkent: G‘.G‘ulom, 504-b

5. Паҳлавон Маҳмуд (Ҳазрати Паҳлавон ота ҳикоялари). Нашрга тайёрловчи М. Ҳасаний. – Тошкент: Фан, 2001. – 51 б.

6. Комилов Н. Тасаввуф. – Тошкент: Movarounnahr – O‘zbekiston, 2009. 448-б.